

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rnini va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlari.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

EKOTURIZIM RESURSLARDAN OQILONA VA SAMARALI FOYDALANISHNING AYRIM MASALALARI (*Dehqonobod tumani misolida*)

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЦИОНАЛЬНОГО И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ ЭКОТУРИЗМА (*На примере Дехканабадского района*)

SOME ISSUES OF RATIONAL AND EFFECTIVE USE OF ECOTOURISM RESOURCES (on the example of Dekhanabad district)

Yarashev Quvondiq Safarovich¹

¹Samarqand davlat universiteti Urgut filiali direktori, g.f.d. (DSc)

Yusupov Baxriddin Bobonazarovich²

²Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Karimov Yunus Tolib o'g'li³

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada Dehqonobod tumani tog' va tog'oldi ekoturizmi rivojlanishining ayrim jixatlari, ayniqsa, tabiiy va xududiy sharoitlari o'rganib chiqildi va tog'oldi ekoturizmi bevosita tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro to'qnashuvi qay tarzda kechishi bilan bog'liq. bo'lgan jarayolar haqida. Qashqadaryo havzasidagi ko'plab tabiat go'shalari borki, u bevosita sayyohlarning dam olish va sog'lomlashtirish vazifasini bajaradi. Binobarin tog' va tog'oldi hududidagi hushmanzara joylar mahalliy va chet ellik sayyohlar uchun ochilmagan qo'riq ekanligi va ekoturizmdagi ayrim jihatlari haqida malumot berildi.

Аннотация

В статье рассматриваются некоторые аспекты развития горного и предгорного экотуризма в Дехканабадском районе, особенно природные и территориальные условия, и рассказывается о том, как предгорный экотуризм непосредственно связан с взаимодействием человека и природы. В бассейне Кашкадары много природных достопримечательностей, которые непосредственно служат отдыху и оздоровлению туристов. В связи с этим была представлена информация о том, что приусадебные участки на территории горы и предгорья являются заповедником, не открытым для местных и иностранных туристов, а также о некоторых аспектах экотуризма.

Abstract

The article examines some aspects of the development of mountain and pre-mountain ecotourism in Dekhanabad district, especially the natural and territorial conditions, and how pre-mountain ecotourism is directly related to the interaction between nature and man. There are many natural attractions in the Kashkadarya Basin, which directly serves as a place for tourists to relax and recuperate. In this regard, it was informed that the mountains and mountainous areas in the mountainous region are a reserve that is not open to local and foreign tourists and some aspects of ecotourism.

Kalit so'zlar: Tog'lar, ekoturizm, buloqlar, o'rmonlar, daryolar, g'orlar, ko'llar,

Ключевые слова: Горы, экотуризм, родники, леса, реки, пещеры, озера,

Key words: mountains, ecotourism, springs, forests, rivers, caves, lakes, and more.

KIRISH

Qashqadaryo zamini o'zining boy tarixi, qadimiy osori-atiqalari, o'tmish yodgorliklari, daryo, soy, buloqlari, baland va viqorli tog'lari, betakror tabiati bilan yurtimizning turizm sohasi salohiyatida muhim o'rin tutadi. Viloyatda turizm sohasidagi barcha yo'nalishlar bo'yicha yetarli imkoniyatlar mavjud. Respublikamiz Prezidentining Shahrizabz shahrini 2024-yilda IHTning turizm poytaxti deb tanlagani bejizga emas albatta. Qadimiy va hamisha navqiron, nomi yetti iqlimga tanilgan shahrimizni ziyorat qilish uchun dunyoning turli burchaklaridan sayyohlar tashrif buyurishadi. Xususan, ekoturizm yo'nalishida ko'plab loyihalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. So'nggi yillarda respublikamiz tog'li va tog'oldi hududlarda rekreatsiya va turizmni istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda turizm, jumladan ekologik turizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biriga aylandi. Shu bilan birgalikda betakror tabiat, go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish imkoniyatlari o'rganilmoqda. Iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ekoturizmning ilmiy-nazariy masalalariga ko'plab ilmiy tadqiqotlar, jumladan, respublikamiz va xorijiy mamlakatlar olimlarning ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Ekoturizm haqidagi manbalar ilk bor XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida xorijlik olimlar R.Davidov, A.V.Drozdov, V.V.Xrabovchenko, T.V.Bochkaryova, L.I.Egorenkov va A.Taksanovlarning asarlarida, respublikamizda ekoturizmning ilmiy-nazariy asoslari A.N.Nigmatov, N.T.Shamuratova, B.Kamolov, M.Xoshimov, S.N.Abduvohidov, Q.S.Yarashev, J.Yu.Xasanov, X.Jumaev, B.Yusupovlar tomonidan o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz Dehqonobod tumani tog' va tog'oldi ekoturizmning ob'ekti sifatida tadqiq etishda R.Davidov, A.V.Drozdov, V.V.Xrabovchenko, T.V.Bochkaryova, L.I.Egorenkov, A.Taksanov, A.N.Nigmatov, N.T.Shamuratova, B.Kamolov, M.Xoshimov, S.N.Abduvohidov, Q.S.Yarashev, R.Usmonova O'.Badalov, J.Yu.Xasanov va boshqa mualliflarning shu sohada bajargan ilmiy-tadqiqot ishlarini metodologik asos sifatida oldik. Ekspertlarning fikricha, bu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlohatlarda turizm hozirgi kunda eng istiqbolli soha sifatida qaralmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirishni respublikamiz o'z oldiga maqsad qilib olgan [17]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va 2019-yil 13-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi [2]. Ushbu hujjatlarda respublikamiz, jumladan, Qashqadaryo viloyati bugungi kunda tabiiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy, turistik rekreatsion resurslarga boy hududlaridan biri bo'lib, bu yerda turizmning deyarli barcha turlarini rivojlantirish uchun muhim manbalar bo'lib xizmat qiladi [5]. Turizm faoliyati subyektlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, mintaqalarning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholining bandligi va farovonligini oshirish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [4]. Qashqadaryo viloyatini boy tabiiy resurslari, betakror o'simlik va hayvonot olamini asrash va salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida ko'plab milliy dasturlar va loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Boisi, mamlakatimizda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatimizga jalb etish, balki iqtisodiy sharoitni yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [6]. Ekologik turizm yoki ekoturizm tabiiy muhitga nisbatan ma'suliyat bilan sayohat qilish, tabiat hududlariga ziyon yetkazmagan holda uni o'rganish hamda tabiatning betakror, jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilgan holda tabiatga ko'maklashadi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir etadi, mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta'minlaydi [12]. Misol uchun, Dehqonobod tumani o'zining ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa tumanlaridan ajralib turadi. Eng muhimi, hududda turizmning ayniqsa, ekoturizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Shu ma'noda bugun tumanda bo'sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan obyektlarni sotish orqali, ular negizida turizm va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirda ko'plab davlat obyektlarini xususiylashtirish rejalashtirilgan, bu orqali turizm sohasida davlat ishtiroki qisqartiriladi va xususiy tadbirkorlik rivojlanadi, yangi ish o'rni yaratiladi. Dehqonobod tumani relyefining 90 % dan ortig'i tog' va tog' oralig'i botiqlari, daryo va soy vodiylari hamda adirlardan iborat bo'lib, relyefning turli ko'rinishlari, baland qorli tog'lar, yuksak cho'qqilar, tik jarliklar, chuqur va uzun daralar, relyefning noyob shakllari ham ko'pchilik ekoturizm ixlosmandlarini o'ziga jalb etishga xizmat qiladi [14]. Dehqonobod tog'li hudud sifatida o'ziga xos geomorfologik, iqlimiy, geologik, etnografik va lingvistik xususiyatlarga ega bo'lgan tumanlardan biridir. Bu esa ekoturizmni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tuman hududning deyarli barcha qismi tog' va tog'oldi adirlari, tog' oralig'i botiqlaridan iborat. Dehqonobod Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqida joylashgan bo'lib, qadim zamonlardan buyon bu yerlarda odamlar yashab kelganlar va bunga Machay g'oridan topilgan qadimiy manzilgoh guvohlik beradi. Tumanga 1926-yil 29-sentayabrda Dehqonobod deb nom berilgan va alohida tuman sifatida tashkil etilgan.

Tuman nomi Dehqonobod qishlog'ining nomi asosida shakllangan bo'lib, dehqonlar tomonidan obod qilingan joy mazmunidagi nom tuman nomiga ko'chgan. 1935-yilgacha qishloq "Tangiharam" deb nomlangan [16]. Ushbu nomni quyidagicha izohlash mumkin. Tang, tangi - Janubiy O'zbekistonda joy nomi hosil qiluvchi o'ziga xos toponimik formant vazifasini bajaruvchi tor dara, tor, ensiz vodiy, soy mazmunini beradi. Toponim ikki tarkibiy qism tang+haram so'zlaridan iborat bo'lib, haram - arabcha "muqaddas", "muqaddas joy" mazmunini anglatadi, bu nomni muqaddas dara, ulug' vodiy, katta soy shaklida izohlash mumkin. Dehqon aslida "deh" (tojikcha) - qishloq, qon, qoon-hoqon, ya'ni qishloq hokimi degan ma'noni anglatadi [13]. Dehqonobod degan qishloqlar o'tgan asrning 70-80-yillarida tashkil topgan. Dehqonobod sharqda Boysun tog'lari orqali Surxondaryo viloyati bilan, janubda Torqapchig'ay va Toychisoy tog'lari orqali Turkmaniston Respublikasi bilan, g'arbda Odamtosh tog'lari orqali Guzor tumani va shimolda Hisor tizma tog'lari orqali Qamashi tumani bilan chegaradosh. Tumaning ma'muriy va madaniy markazi Qorashina aholi punkti bo'lib, uning nomi "qora" va "shinak" so'zlaridan kelib chiqqan hamda "Qora pistirma" ma'nosini anglatadi. Qorashina viloyat markazi Qarshi shahri bilan avtomobil yo'li orqali bog'langan, bugungi kunda Dehqonobod tumanidan G'uzor-Bosun-Qumqo'rg'on temir yo'li o'tgan (223 km). Dehqonobod tumanining umumiy yer maydoni 4104 kv. km va chegarasining umumiy uzunligi 197 km, aholisi 153,1 ming kishi (2023-yil), 1 kv. km ga o'rta hisobda 30 kishi to'g'ri keladi. Dehqonobod tumanida 3 ta shaharcha (Qorashina, Dehqonobod, Beshbuloq), 16 qishloq fuqarolari yig'ini faoliyat ko'rsatmoqda. Dehqonobod tumani hududi tekislik cho'l, adir chalacho'l va tog' mintaqalariga bo'linadi. Tekislik cho'l mintaqalariga Xo'japirlast, Qizilcha, Oqirtma, Otqamar, Chuchukquduq, Fariota kabi hududlar kiradi [14]. Bu joylar buloqlar va doimiy oqar suvlar yo'qligi uchun cho'l zo'nasi deb ham ataladi.

Adir va tog' mintaqalari Dehqonobod tumani hududining asosiy qismini tashkil qiladi. Shimoli-sharqda joylashgan va janubi g'arbga yo'nalgan Chaqchar tizma tog'i, Hisor tizmasining janubiy g'arbiy tarmog'i bo'lib, o'tkir qirrali cho'qillari va juda chuqur daralarga boy. Uning eng baland cho'qqisi Xurosan dengiz sathidan 3744 m balantlikkacha ko'tarilgan. Chaqchar tizmasi mezazoy ohaktoshlaridan tashkil topgan hamda uning etaklarida toshqotgan marjon poliylari va dengiz kirpilarining qoldiqlari ko'p uchraydi, bu esa ekoturizmlar uchun juda ham qiziqarli hisoblanadi, ayrim joylarda ohaktosh qatlamlari ham mavjud. Bu yerda ekoturizmning barcha funksional turlarini (sog'lamlashtirish, davolash, sport, sayohat va b.) tashkil etish va rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Hozirgi paytda tog' va tog'li rayonlarning ekoturizm imkoniyatlaridan asosan yoz oylarda ko'proq foydalanilmoqda. Holbuki o'rtacha balandlikdagi tog'larning landshaft va iqlim sharoitlari sanatoriylar hamda kurortlar uchun juda ham qulaydir. Bu yerda bulutsiz va quyoshli kunlarning ko'p bo'lishi, havoning tozaligi hamda fitonsidlariga boyiganligi, mineral va shifobaxsh buloq suvlari bilan davolash, salomatlikni tiklash uchun juda katta qulayliklar yaratadi. Chaqchar tizmasining janubi-g'arbidagi davomi Boysuntog', Ketmonchopdi va Suvsiztog' massivlari diyarli meridianal yo'nalishga egadir, ulardan g'arbdagi Bobosurxak, Qorasirt va Kafantog' massivlari o'rtacha balandlikdagi tog'lar bo'lib, ularning eng baland ko'tarilgani Bobosurxak tog'i bo'lib, ayrim cho'qqilari dengiz sathidan 2888 m gacha balandlikkacha etadi. Bu tog'lar yura, bo'r paleogen davrlarida hosil bo'lganligini ularning tarkibidagi cho'kindi jinslar isbotlab beradi [13]. Dehqonobodning g'arbini Odamtosh massivi chegaralab turadi, Odamtosh massivi sharqda Ko'xitang tizmasidan boshlanib g'arbda Qarshi dashti tomon asta sekin pasayib boradi. U balandligi 1279 m gacha bo'lgan tizmachalardan tashkil topgan bo'lib, tizmachalar orasidagi sinklinal botiqlar davriy oqimli soylarning vodiylarini ajratib turadi.

Dehqonobodning ekoturistik manzilaridan biri bo'lgan tog'li hududlarida bir qancha mayda ko'llar uchraydi [14]. Xususan, Katta O'radaryoning yuqori oqimidagi 1,5 kv. km maydonni egallab yotgan Turobbobo Kichik O'radaryo boshlanishidagi Xo'jabulg'ur ko'llari karst jarayonlari natijasida hosil bo'lganligi tufayli ancha chuqur (16 m). Kichik O'radaryoning irmog'i bo'lgan Konsoydaryo boshlanishida Konsoy qishlog'i yonida joylashgan shu nomli Konsoy sho'r ko'li Dehqonobod tumani markazidan 16 km uzoqda, janubi-sharqqa yo'nalgan, magistrantal yo'ldan 10 km uzoqlikda tog'lar orasida 1260 m dengiz sathidan balandlikda joylashgan bo'lib, bu yerga har yili 8 mingga yaqin dam oluvchilar tashrif buyuradi. Ko'lining suv sarfi sekundiga 1,5-2,0 l, minerallashishi darajasi 266 gr, suvning tarkibi kaliy, kalsiy va natriy xloridli, harorati 34^oS atrofida [6]. Mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar davolanish, sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mineral suvlar harorati, kislotalilik, minerallashuvi va gazlari tarkibi bo'yicha tasniflanadi. Mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlarning mavjudligi mintaqaning ko'plab hududlarida davolanish-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishda hamda turizm infratuzilmasining joylashishini ham

belgilaydi. Tabiiy omillarni har tomonlama tahlil qilinganda, insonlarning yashash va dam olish faoliyati uchun qulay sharoitni yartishdan iborat. Ko'l bo'yida davolanuvchilarga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini barpo qilish va atroflarni ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, avtomobil yo'llarini qurish, sanitar-gigiyenik talablariga amal qilgan holda davolanish maskaniga aylantirish, umumiy ovqatlanish, savdo do'konlari, mehmon uylari va avtaturargohlarni qurish, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tavsiya etiladi. Shu bilan birgalikda bu maskanlarda davlat hususiy sheriklik asosida xizmat ko'rsatish va servis tarmog'ini yo'lga qo'yish orqali 100 ga yaqin mavsumiy va doimiy ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjud. Ko'l atrofi ham o'zgacha ko'rinishga ega bo'lib tabiiy geografik jarayonlar natijasida hosil bo'lgan. Tog'li hududlarning geomorfologik xususiyatlariga bog'liq holda turli ekzogen jarayonlar, karst, suffoziya, daryolarning yemiruvchanlik faoliyati ta'sirida relyefi nihoyatda parchalangan va shu bilan birgalikda xilma-xil oronimlarni hosil qilgan. Tog' atrofi qalin archazorlar bilan qoplangan va uning orasida ta'mi shirin muzdek zilol suvlar oqib turadi. Bu yerga tashrif buyurgan turislar ko'lda cho'milish bilan birga atrofdagi tabiiy manzaralar bilan tanishishlariga imkon yaratadi. Daryo va ko'llaning sohillarida qadimgi suv izlari, tog' jinslari, turli topilmalarni kuzatish mumkin. Tog' va tog'oldi hududlarida turli rangdagi va qatlamdagi toshlar, ohaklar (jinslar), qorning saqlanish sabablari qaysi hayvonlar yoki parrandalar mavjudligi, ularning sonini aniqlash lozim bo'ladi. Turistlar tog'lar va daryo, ko'l sohillaridagi g'orlar, toshdagi yozuvlar, turli qoldiqlar tarixini o'rganishni juda ham qiziqarlidir. Ko'lning yaqin atroflarida esa ko'plab sovur archasi, pista, yovoyi bodom tog' olchasi, butalardan zarang, uchqat, na'matak, ko'p yillik o'simliklardan taroqbosh, tog' lolasi, tulki quyruq, boshqoqli efemerlarni uchratish mumkin. Tuman hududida 40 oila, 113 turkum va 135 turga mansub o'simliklar uchraydi. Ushbu o'simliklar tumanning barcha mintaqalarida keng tarqalgan. Ko'lning atrofida dorivor o'simliklar nihoyatda ko'p, bularga misol qilib tog' yalpizi, kiyik o'ti, zirk, na'matak va ko'plab ziravor o'simliklarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, bu yerda kovrak ham mavjud bo'lib, u dorivorligi va kamyoblighi bilan ajralib turadi. Shu o'rinda archa daraxtini foydali hususiyatlari haqida aytib o'tsak archa - sarvidoshlar oilasiga mansub ignabargli o'simlik. Respublikamizning tog' o'rmonlarida archaning 3 turi uchraydi. Qashqadaryo tog'larida zarafshon archasi (qora yoki qizil archa), dengiz sathidan 1000-2500 m balandlikda, yarim sharsimon archa (saur archa) 2600-3200 m balandlikda, turkiston archasi (o'rik archa) 3000 m va undan yuqorida o'sadi. Archa daraxti nihoyatda o'ziga xos o'simlik, u tog'li va toza tog' havosini yoqtiradi, bir yilda 10-12 sm o'sadi. Daraxtning shox-shabbasida efir moyi to'planadi. Archa yaprog'ida 0,45 dan 0,75 foizgacha yog' bo'lishi mumkin [8]. Archaning atmosfera havosini zararli chang va mikroorganizmlardan tozalashdagi ro'li ayniqsa kattadir. Professor B.P.Toxin ma'lumotlariga ko'ra, bir gektar archa o'rmoni bir kunda 30 kg gacha fitonsidlar deb ataluvchi bakteriya va zamburug'larni yo'qotadigan, aerozollar ajratishi mumkin. Shu miqdordagi fitonsid butun bir shaharning havosidagi kasallik tarqatuvchi mikroblarni qo'qotishga yetadi. Shuning uchun ham archazorlarning havosi sanoat shaharlari havosidan 200 marta tozadir. Keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lumki bu hududning havosi ancha toza va yoqimli ekanligi turislar sog'lig'i uchun koni foydadir [7]. Turistlar uchun piyoda yurish, toza havoda dam olish, tunash, quyosh nurlarida toblanish hamda ko'l suvida cho'milib chiniqishi mumkin. Bu esa nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish organlarining ish faoliyatini yaxshilab, sog'lom bo'lishni taminlaydi. Piyoda sayr qilish jarayonida sayyohlarni bokira tabiatning xususiyatlari bilan tanishtirishga asosiy e'tibor beriladi, bundan tashqari sayohatchilar mahalliy aholining madaniy tarkibiy qismi va urf-odatlarini o'rganadilar. Bu hududda quyosh nur sochib turadigan davr ancha uzoq davom etadi va o'rtacha 2600-3000 soatni tashkil etadi. Tekislik qismida yoz fasli 155-160 kunga tog'li joylarda esa 80-90 kunga to'g'ri keladi [14]. Tumandagi yana shunday joylardan biri Xo'jayipokota nomi bilan mashhur tabiiy ko'l bo'lib, bu ko'l tumanning janubida joylashgan hozirgi kunda bu ko'l suvi sho'r, ichish uchun yaroqsiz. Mineral suvi va shifobaxsh balchiq tarkibida sulfidlar, 42 xildagi mikroelementlar uchraydi. Ko'l maydoni 0,1 km², suv 47 m chuqurlikdan sizib chiqadi. Bu yerda ayollar va erkaklar uchun alohida cho'milish uchun sharoitlar yaratilgan. Balchiqli umumiy maydon 2,5 km² ni tashkil etadi. Qishloq tutash tog' yonbag'rida buloqlar chiqib turadi. Yozning issiq jaziramalari boshlanishi bilan butun respublikamiz hududidan, ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarida juda ko'plab ziyoratchilar kelishadi.

Xo'jayipok qishlog'idagi minerallasgan, balchiqli ko'l atrofiga 15 mingdan ortiq dam oluvchilar tashrif buyuradi. Bu buloqning suvi o'ziga xos shifobaxshligi bilan ajralib turadi bu suvdan ichgan odamlar jigar, oshqozon-ichak kasalliklaridan forig' bo'lib, ularning me'da faoliyati yaxshilanadi. Yana bu sho'r suv har xil toshmalar va teri kasalliklarini davolashda axamiyatlidir. Bu

yerda balchiq ham mavjud bo'lib, u bo'g'in kasalliklariga va har xil shamollashlarga ham davolash hisoblanadi. Bu balchiq issiq bo'lib, doimiy 20-25 C atrofida bo'ladi. Yoz oylari esa nihoyatda qizib ketadi. So'ngi yillarda bu yerga tashrif buyuruvchilar soni ko'payib bormoqda, Bunday shifobaxsh suv, ya'ni oltingugurt vodorodli suvlar, chuqur ohaktoshli qatlamlar bag'rida kislorod gazining siyrakligi sababli organik moddalarning parchalanishidan hosil bo'ladi. Oltingugurt va vodorod ionlari bunday suvlar tarkibida 40-60 mg/l dan ortiq holda uchraydi. Ko'plab kasalliklarga davolash hisoblanadi. Masalan, meda, yuragi xasta, ichki a'zolari va badanida yarasi borlar ushbu suvdan iste'mol qilib, cho'milib tursa shifo topadi [6]. Xo'jaipok ziyoratgohida turistik loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek ko'ldagi balchiq orqali paleodoterapiyani ham yanada rivojlantirish imkoni mavjud.

Dehqonobod tumanining Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh "Xo'jaipok" va "Bo'ztepa" qishloqlarida tadbirkorlik loyihalarini shakllantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Xo'jaipok ko'li yonida turistik zona tashkil etish rejalashtirilgan. Shu yo'l bilan 100 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy aholining qo'shimcha daromad olishi hamda ziyoratchi mehmonlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bu yerda ekoturizmni rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi. Konsoy va Xo'jaipok buloqlarining suvi ko'plab teri-tanosil kasalliklariga davolash hisoblanadi. Yana shunday ekoturistik maskanlardan biri Hisor tog'ining janubi-g'arbi qismida joylashgan Sarg'ayota o'rmon xo'jaligi hududida joylashgan. Sarg'ayota ziyorotgoh bo'lib, bu ziyorotgoh dengiz sathidan 1500-2000 m balandlikdagi tog'ning ustida joylashgan. Bu qadamjo tuman markazidan 50-55 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, ziyorotgoh juda qadimiy hisoblanadi, u XV-XVI asrlardan beri mavjud [11]. Ziyorotgohga boradigan avtomobil yo'li yaxshi emas, bu yerga faqatgina yo'l tanlamas, tog'da yurishga moslashgan avtomobillar yura oladi. Agar shu qishloqlardan ziyorotgohgacha yo'l yaxshilansa o'ylaymanki yanayam aholi kelishi ko'payadi. Bu yerga aprel, may oylarida juda ko'plab sayyohlar boradi. Ko'proq mahalliy aholi ziyoratga boradi va shu bilan birga boshqa tumanlar hamda viloyatlardan ham ko'plab ziyoratchilar kislarodga boy havo, toza muzdek zilol suv, baland tog'lar va maftunkor tabiat qo'ynida dam olish uchun tashrif buyurishadi. Uzoqdan keladigan turistlar, ziyoratchilar uchun tunab qolishga sharoit yetarli emas, shuning uchun bahor va yoz oylariga, ya'ni mavsumiy turar joylarni (o'tovlar)ni qursa maqsadga muvofiq, yo'l infratuzilmasini yaxshilash, elektr energiyasini uzliksiz yetkazib berish zarur. Ana shundan so'ng bu yerga keluvchilar oqimi yanada ko'payadi. Har yili bahor oylarining oxiri va yoz oylarining boshlarida o'rtacha ziyoratgohga 6-7 ming ziyoratchilar va dam oluvchilarga kelishadi. Ziyorotgoh joylashgan hududning tabiati shunchalik go'zalki u yerga bir marta borgan odam yana borgisi kelaveradi. U yerga yozda borsangiz 3 ta faslni ko'rishingiz mumkin ya'ni bahordagi kabi yam-yashillikni, qishdagi kabi baland tog'lardagi qorlarni va kuzdagi singari dehqonlarning hosil yig'ayotganing guvohi bo'lasiz.

Ma'lumki, joriy yilning 12-17-fevral kunlari Samarqand shahrida BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi Tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi (COP-14) bo'lib o'tdi. Unda 130 dan ortiq davlatdan 2 mingga yaqin ishtirokchilar qatnashdi. Shu konferensiyada qilingan taqdimotda "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasi haqida ham axborot berildi. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi ushbu loyihaning umumiy qiymati 205 million dollardan ziyod bo'lib, 6 yil davomida amalga oshiriladi. Bu mablag' o'rmonlar hududini kengaytirish, o'rmon xo'jaliklari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, barqaror boshqaruvni joriy etish, ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish kabi maqsadlarga yo'naltiriladi. Xususan, o'rmonlarni tiklash va muhofaza qilishda innovatsion boshqaruv tizimi hamda axborot texnologiyalar joriy qilinadi. Degradatsiyaga uchragan o'rmon yerlari tiklanadi. Chegaradosh hududlardagi landshaftni tiklash bo'yicha qo'shni davlatlar bilan hamkorlik rivojlantiriladi. Bularning natijasida, jumladan, 175 ming gektar o'rmonlar va 38 ming gektar yaylovlarni qayta tiklash, 19 ming gektarda agroo'rmon va 5 ming gektarda sanoatbop o'rmonlar barpo etish, 63 kilometr eko yo'laklar tashkil qilish ko'zda tutilgan. Yana bir ekoturizm maskanlaridan biri Hisor tog'ining janubi-g'arbi qismida joylashgan, tuman markazidan 37 km uzoqlikda joylashgan, Dug'ob qishlog'idir. Tog'li qishloq o'zining maftunkor havosi, musaffo buloq suvlari bilan azaldan odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan, eng qadimgi odamlar manzilgozlari ham tog'li qishloqlarda ekanligi bejizga bo'lmasa kerak. Qishloq turizmi dehqonchilik turizmidan tashqariga chiqib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: qiziqarli tabiat bayramlari, piyoda sayr qilish, to'g' sporti bilan shug'ullanish va otda sayr qilish, sarguzasht turizmi, ayrim hududlarda esa etnografik turizm. Shundoqina qishloqning yuqori qismida joylashgan, Qoplandara bo'ylab ekoturistik sayohatni amalga oshirish mumkin, bunda qoplandaradan boshlab turistlar chashmagacha bo'lgan

7 km masofani bosib o'tishlari kerak bo'ladi. Bu sayohatni davomiyligi 2-3 kunni tashkil etadi, chunki yuqoriga chiqan sari turistlar uchun qiziqarli bo'lgan tabiat mo'jizalari ko'payib boradi. Darada ochilib qolgan qattiq tub jinslarni, yuvilish natijasida hosil bo'ladigan tor va chuqur, tik yonbag'irli vodiyni, ularning uzoq vaqtdan buyon tik holatda bo'lgan yon devorlari tomosha qilishlari mumkin. Vodiy eniga sekin o'sadi, odatda ularni chuqurligi enidan ortib boradi. Dara ba'zan yer yuzasi yorilganda tektonik yo'l bilan ham vujudga keladi. Kanon va darbandan farqli ravishda tubi qisman daryo o'zani bilan band bo'ladi.

Dara hududida asl yovvoyi tabiat iloji boricha o'z holida saqlab qolishga harakat qilingan. Daraning ikki tarafida qalin o'rmonzorlarni yoki u yerda uchraydigan quyon, tulki va bo'rilarni ham kuzatish mumkin. Tog' oldi hududiga ko'proq yoz va kuz oylarida borish tavsiya qilinadi. Chunki hududda qish va bahor vaqtda ham qor saqlanib turadi. Ba'zi joylarni tomosh qilish sayyohlar uchun ancha noqulay. Daraning kengligi 100 m dan 250 m gacha o'zgarib turadi, uning yonbag'irlarining tikligi 80-100 m atrofida, lekin eng chuqur joyi 250 m ni tashkil qiladi. Dara va uning atrofidagi hududlar To'rtko'l sarxadi o'rmon xo'jaligi himoyasiga olingan. Dara bo'ylab sayohat qilishning bir necha marshrutlari mavjud piyoda. Bunday sayohatning qiziqarliligi shundaki, turistlar asta-sekin o'zgaruvchan landshaftlardan bahramand bo'lishi mumkin. Misol uchun, tong otganda va quyosh botgandan keyin bir xil joy butunlay boshqacha ko'rinishi mumkin. Dara yoki kanyonlardan samarali foydalanishda jahon tajribasiga tayanish kerak. Dunyodagi eng chuqur kanyonlardan biri hisoblangan Buyuk Kanyon (Grand Canyon) AQShning Arizona shtatidagi Kolorado platosida joylashgan. Milliy park AQSh uchun iqtisodiy jihatdan ham juda foydali. Har yili bu yerga 4 milliondan ortiq mahalliy va xorijiy sayyohlar keladi. Bu raqamlar esa mamlakatga qo'shimcha yuz millionlab dollar foyda keltirish bilan birga o'n minglab ishchi o'rnini yaratadi [18].

Chashmaga yaqinlashganda tabiiy landshaft va madaniy landshaftlar shu darajada uyg'inlashib ketganki, beixtiyor diqqatingizni tortadi. Shu bilan birgalikda mahalliy dehqonlar tomonidan yaratilgan bog'larda ko'plab mevali daraxtlarni uchratasiz, bu esa agroturizm ishqibozlari uchun juda ham qiziqarlidir, ular ayniqsa mazali va totli bo'lgan mevalardan tatib ko'rishi va mevalardan sotib olib, o'zlari bilan birgalikda olib ketishlari mumkin bo'ladi. Buning uchun chashmaga yaqin bo'lgan archazor hududlarida o'tov, "camping", "glamping", ekouylar, yengil konstruksiyali konteynerlar joylashtirish lozim, ularni energiya bilan ta'minlaydigan quyosh batareyalar o'rnatish, xizmat ko'rsatish va servis tashkil qilish maqsadga muvofiq. Tog' yonbag'irlarida dam olish maskanlarining tashkil etilishi sayyohlarning mazmunli hordiq chiqarishiga xizmat qiladi. So'lim tabiat, musaffo tog' havosi, shifobaxsh chashma va buloqlar mehmondo'st qishloq odamlari, ekologik toza mevalar, xushxo'r taomlar va ruxlariga sokinlik bag'ishlovchi tabiat yodgorliklari sayyohlarni o'ziga jalb qilishi shubhasiz. Xo'jalik nuqtai nazaridan baland tog' landshaftlari yozgi yaylovlar sifatida foydalanilish mumkin. Ammo rel'efning murakkabligi baland tog'-o'tloq-dasht landshaftlarini yaylov sifatidagi ahamiyati unchalik katta emas. Tog' landshaftlarining tabiiy salohiyatidan foydalanishda yaqin kelajakda ekoturizm va sport turizimini rivojlantirish samarali hisoblanadi. Tuman hududidan oqib o'tuvchi Kattaoradaryo va Kichikoradaryoni hisobga olmaganda doimiy oqimga ega daryo va soylar deyarli uchramaydi. Shu tufayli mahalliy aholi qadimdan buloqlardan ichimlik suvi sifatida samarali foydalanib keladi. Buloqlar tog' va tog'oldi hududlarida juda ko'p, ular daryolarning to'yinishida salmoqli o'rin tutadi. Buloqlarning aksariyat qismi chuchuk suvli buloqlar bo'lib, aholi uchun ichimlik suvi manbasu vazifasini bajaradi. Ko'kbuloq nafaqat Dehqonobodning balki butun viloyatning eng mashhur chashmalaridan hisoblanadi, u Katta O'radaryoning o'rta oqimida, vodiyning o'ng biqinida dengiz sathidan 1208 m balandlikdan qozonsimon chuqurlikdan qaynab chiqadi [18].

Ko'kbuloq shu nomli qishloq chekasida joylashgan, uning suv sarfi 160-170 l\sek., yoz oylari suvi ancha ko'payadi, chunki buloqning to'yinish manbai bo'lgan Mingchuqur tog'laridagi karst chuqurliklarida yozda qor jadal eriydi. Suvi sal achchiq sho'r ta'mli, tarkibida kalsiy sulfat tuzlari erigan holda uchraydi, har 1 l da 77 gr gacha tuz bor. Dehqonobod tumanining yana bir rekratsiya markazlaridan biri Kamol buloq bulog'i hisoblanadi. Tuman markazidan 15-20 km uzoqlikda To'dachorbog' qishlog'idagi tog'yonbag'rida joylashgan bo'lib, bu yer judayam maftunkor manzarali joy hisoblanadi. Bu buloq suvidan ichishingiz bilan odam o'z tanasida qandaydir yengillikni sezadi. Balki shuning uchun ham qishloq aholisi orasida hech qanday yuqumli kasalliklar uchramaydi. Bu qishloq aholisi orasida yoshi ancha katta bo'lgan keksalar judayam ko'pchilikni tashkil qiladi. Keksalar yoshlardek g'ayratli, yoshlar esa baquvvat, serg'ayrat va chayirligini ko'rib, bu yerda sog'lom turmush va sog'lom hayot mavjudligini ko'rishingiz mumkin [11]. Bu yerga keluvchi rekreatlar turli xil dardlarga davo istab, ya'ni jigari kasallanganlar, buyrakda tosh hosil

bo'lgan kishilar kelib shifo topib ketishadi. Buloq tog' yonbag'rida joylashganligi sababli mashinalar chiqolmaydi, shu sababdan ham 300-400 m masofaga rezina shlang bilan pastga suv olib tushilgan va shu yerda kichik hovuzlar qurilgan. Respublikamiz hududidagi har bir daryo, soy va hatto ko'llarda suv sathi tebranishi kuchli va kamsuvli davrlar kuzatiladi. Lekin bu buloqdan suv to'rt faslda ham bir me'yorda chiqib turadi. Bu yerga yoz oylarida rekreatlar kelib bir necha kun qolib davolanishlari mumkin. Bu buloqning suvi har xil foydali minerallarga boy, jumladan suv magniy sulfat, natriy, kalsiy, kaliy va boshqa turli xildagi mineral moddalarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Kamolbuloq suvi o't pufagi, oshqozon, jigar va boshqa ichki organlarni yuvib, kishilarni darddan forig' etishda zamonaviy qo'llanilayotgan gemazoddan bir necha barobor afzal ekan. Shifokarlar ham ushbu dard bilan og'rikan insonlarga Kamolbuloq suvini tavsiya qilishadi. Kamolbuloq suvidan 2005-yilgacha mahalliy aholi foydalangan bo'lsa, hozirgi kunda viloyatgina emas butun respublikadan bu yerga kelishadi. Buloqqa kelgan odamlar soni ko'payib bormoqda, shu sababli bu yerda yo'l infiraturizmasini yaxshilash lozim, ana shuda rekreatlarning soni yanada ko'paygan bo'lar edi [7].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tog'oldi va tog'larda rekreatsion imkoniyatlar ko'p va ular katta salohiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Qulay va eng qulay rekreatsiya, ekoturizm resurslari minglab kishilarni musaffo havо, betakror manzaralariga boy bo'lgan go'shalarda xordiq chiqarishi, sog'lig'ini tiklashini taminlaydi. Shu bilan birgalikda ko'plab mahalliy aholini mavsumiy va doimiy ish o'rinlariga ega bo'lishiga imkon yaratadi. Ko'plab sayyoxlar tog' so'qmoqlarida yurib tabiatning yodgorliklaridan zavq-shavq olishadi, miriqib tamosha qiladilar, suv havzalarida cho'milib, tabiat sahovatidan baxramand bo'ladilar. Kasallikka chalinganlar buloqlar suvlari, ulardagi balchiq, musaffo havodan va dorivor giyoxlar yordamida o'z sog'liqlarini tiklashi mumkin. Demak, barqaror rivojlanayotgan tabiiy majmualar ma'lum ekologik xususiyatlarga egaki, ular qulay tabiiy sharoit va resurslar majmuasi bilan ma'lum darajada samaradorlikka ega. Ekologik samaradorlik landshaftning resurslari asosida inson xo'jalik faoliyatini yuritish, ekoturizm boyliklaridan baxramand bo'lish, tabiatdan estetik zavq olish va boshqa jihatlarida ifodalanadi. Tabiatdan foydalanishda landshaftlar qanchalik ilmiy asoslangan holda boshqarilsa, ular shunchalik yuqori darajada iqtisodiy va ekologik samaradorlikka ega bo'ladi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. –Самарқанд, 2023.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 мартдаги ПҚ-4247-сонли “Қўриқланадиган табииёт ҳудудлари соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
3. O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 8 martdagi "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 198-sonli Qarori.
4. Абдуллаев С.И., Усманова Р. Қашқадарё ландшафтларини тасниф қилишнинг айрим масалалари //Жанубий Ўзбекистон табииёт манбаларидан оқилона фойдаланиш масалалари. -Т., 1997. –Б. 23-28
5. Abdulkasimov A., Yarashev K., Razikova Z., Tashbayev Z. Regional problems of ecological condition of agricultural landscapes Central Asia // Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 1-son (83). – Samarqand, 2014. – P 76-78 (11.00.01; milliy nashrlar, №4).
6. Бадалов У.Б. Ярашев К.С. Холмуродова Н.Х. Entertainment and recreation of Uzbekistan. Молодой ученый. Казань, 2015. Журнал №8 (88). Стр. 353-355.
7. Бадалов Ў.Б., Ярашев Қ.С. Омонқўтонсойнинг рекреация ресурслари ва улардан фойдаланиш масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Наманган, 2014. –Б. 157-158.
8. Жумаев Х.Х. Қашқадарё вилояти туризм - рекреация салоҳиятини баҳолаш ва туризм инфратузилмасининг ҳудудий тизимларини такомиллаштириш // PhD дисс. -Самарқанд, 2022. –129 б.
9. Маматов А.М. Ҳисор тоғлар баландлик ландшафт комплексларини муҳофаза қилишнинг долзарб масалалари //География ва табиий ресурслардан фойдаланиш. -Т.: ЎзМУ, 2001. –Б.48.
10. Назаров М.Г. Қашқадарё ҳавзасининг антропоген ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик ҳолати // PhD дисс.автореф. Самарқанд, 2020. 19 б.
11. Noraliyev K.J. Dehqonobod tumanidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda moddiy-madaniy yodgorliklar va muzeylarning ornı (Qashqadaryo moddiy-madaniy yodgorliklari va muzeylari misolida) Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 5-may, 2022-yil 2-Qism. Shahrisabz
12. Ярашев Қ.С., Очилов С., Юсупов Б.Б. Тоғ ва тоғолди ландшафтларида экотуризм ривожлантиришнинг айрим масалалари (Ҳисор давлат қўриқхонаси мисолида). О'zbekistonda turizmni rivojlantirishda moddiy-madaniy yodgorliklar va muzeylarning o'rnı (Qashqadaryo moddiy-madaniy yodgorliklari va muzeylari misolida) Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 5-may, 2022-yil 2-Qism. –Shahrisabz, 2022.

13. Ярашев Қ.С. Жанубий Ўзбекистон дарё ҳавзалари ландшафларининг функционал-динамик боғлиқлиги ҳамда уларни ландшафт-экологик районлаштириш // Геогр. фанлари доктори (Dsc) дисс. автореф. - Самарқанд, 2022. – 29 б.
14. Yarashev Q.S., Yusupov B.B. Territories protected as objects of the ecosystem (by the example of the gisor state reserve) №3(106) 2-mart 2023 - Б 339-345
15. Yarashev Q.S., Yusupov B.B. Qashqadaryo havzasi tog' va tog'oldi ekoturizmidagi imkoniyatlar «Geografiya fani va raqamli iqtisodiyot: muammo va istiqbollar». Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2023-yil 12–13-oktabr). – Namangan: sh
16. Эшбоев Б.Т., Юсупов Б.Б. Деҳқонобод тумани ойконимлари ясалишининг табиий географик хусусиятлари // География ва география таълимидаги муаммолар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. -Тошкент: ТДПУ, 2018 йил 25 октябрь. – Б. 217-221.
17. Юсупов Б.Б. Экотуризм атроф муҳитни муҳофазалаш ва барқарор ривожлантириш омили. «Замонавий географик тадқиқотлар назария, амалиёт, инновация» Халқаро илмий-амалий конференция материаллари Самарқанд ш, 12-13 май 2023 йил.
18. Xoliqov H., Rajabov F. Dehqonobod tumaning ba'zi bir turistik va rekreatsion maskanlari. Scientific Progress, 2021. –B. 379-383.
19. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (O'zME) 2000 - 2006 yil nashri